



Norqo'ziyeva Shaxnoza Ismoiljonovna

*Alfraganus university
"Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi*

MASOFAVIY O'QITISHNING UMUMIY VA XUSUSIY TAMOIYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada masofadan o'qitishning metod, texnologiya va vositalari batafsil bayon etilgan. Oliy adabiy ta'limda masofadan o'qitish metodikasi yuzasidan tajriba-sinov ishlari natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, xalqaro standartlar va ayrim xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganilgan holda ijobiy jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

Аннотация. *В данной статье подробно описаны методы, технологии и инструменты дистанционного образования. По результатам экспериментальной работы по методике дистанционного обучения в высшем литературном образовании разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации. Кроме того, изучены предложения и рекомендации, направленные на совершенствование положительных сторон международных стандартов и передового опыта некоторых зарубежных стран.*

Annotation. *This article describes the methods, technologies and tools of distance education in detail. Scientifically based proposals and recommendations have been developed based on the results of experimental work on the methodology of distance learning in higher literary education. In addition, suggestions and recommendations aimed at improving the positive aspects of international standards and the advanced experience of some foreign countries have been studied.*

Tayanch so'zlar: *metod, texnologiya, masofadan o'qitish, grafik tasvir, ko'rgazmalilik, drama, elektron ta'lim, elektron ensiklopediyalar.*

Ключевые слова: *метод, технология, дистанционное образование, графическое изображение, демонстрация, драматургия, электронное образование, электронные энциклопедии.*

Key words: *method, technology, distance education, graphic image, demonstration, drama, electronic education, electronic encyclopedias.*

Kirish. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta'lim tizimida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o'qitish hamda muammoli-vaziyatli uslublar kabi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ma'lum bir muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Jumladan, hozirgi kunda ta'lim tizimida mavjud bo'lgan didaktik tizimlar ko'p holatda dars jarayonida ma'ruza qilish, namoyish etish, eshitish va yozib olish kabi o'qitish paradigmasiga asoslangan. Ushbu didaktik tizimda asosiy vazifani tyutor bajaradi, ta'lim oluvchi esa ko'proq passiv bilim oluvchi hisoblanadi. Bunday ma'ruza shaklida o'qitishda ta'lim oluvchilar ko'pincha tyutor tomonidan dars jarayonida birinchi marta aytilgan ma'lumotlarini tushunishga harakat qiladi va ular bu ma'lumotlarning mazmun-mohiyati haqida chuqurroq o'ylashga ulgurmaydi va tezkorlik bilan tyutorning so'zlarini yozib olish bilan band bo'ladi.

Xalqaro mutaxassislardan biri K.D. Muldrov fikricha, tyutor ma'ruza shaklidagi darsda o'qitishning differensial yondashuvini to'liq amalga oshira olmasligi, har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga ololmasligi, o'quv materiallarni o'zlashtirishining tegishli sur'atini ta'minlay olmasligi mumkin. Bu holat hozirgi kunda butun dunyoda muammo sifatida qaralmoqda va mazkur muammoni bartaraf etish uchun ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishini tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yuqorida ta'kidlangan muammolarning yechimini topish va ilgari surilgan g'oyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish shakllaridan biri aralash o'qitish (Blended learning) hisoblanadi. Aralash o'qitish zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, uning asosi "sinf-dars tizimi" bilan elektron ta'limning birlashuvi konsepsiyasidan iborat. Bu elektron ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy o'quv vositalari taqdim qiladigan yangi didaktik imkoniyatlarga asoslanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda turli fanlar bo'yicha masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu yo'nalishda sezilarli natijalarga ham erishildi. Ayni damda esa muayyan vaziyat tufayli fanlarni masofadan o'qitish har bir pedagog uchun muhim vazifaga, ta'lim berishning real imkoniyatiga aylandi. Yurtimizda shakllangan mazkur nisbatan yangi yo'nalish yanada tezroq rivojlanishi uchun xorij tajribasini o'rganish va buning natijasida to'plangan bilimlarni bizning

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta'lim tizimida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o'qitish hamda muammoli-vaziyatli uslublar kabi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

***Hozirgi davrda
tezkor, jadal
tarzda axborot
texnologiya
vositalarining
xilma-xil turlari
yaratilmoqda.
Kundalik hayotimiz
uchun axborot
texnologiyalarining
zarurati tobora
oshib bormoqda.
Bugungi kunda
an'anaviy ta'limda
qo'llanadigan
ko'rgazmali
qurollardan biroz
chekingan tarzda
ta'lim jarayonida
ham darslarni
yanada qiziqarli va
yangi axborotlarga
boy tarzda tashkil
etishda axborot-
kommunikatsiya
texnologiyalari,
multimedik
vositalardan keng
foydalanilmoqda.***

sharoitimizga moslashtirgan holda qo'llash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Pedagog olim Ibraymov Asqar Yesbosnovich "Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi" nomli qo'llanmasida masofaviy ta'limga quyidagicha ta'rif beradi: "Masofaviy ta'lim texnologiyalari — bu ta'lim oluvchi va pedagog xodimning to'liq yoki qisman masofadan o'zaro faoliyatida, asosan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab amalga oshiriladigan ta'lim texnologiyalari"¹.

Hozirgi davrda tezkor, jadal tarzda axborot texnologiya vositalarining xilma-xil turlari yaratilmoqda. Kundalik hayotimiz uchun axborot texnologiyalarining zarurati tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda an'anaviy ta'limda qo'llanadigan ko'rgazmali qurollardan biroz chekingan tarzda ta'lim jarayonida ham darslarni yanada qiziqarli va yangi axborotlarga boy tarzda tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedik vositalardan keng foydalanilmoqda. Bu hol, o'z navbatida, ona tili va adabiyot darslarida texnik vositalarning turli ko'rinishlaridan foydalanish imkonini bermoqda. Bularning natijasida o'qitish jarayonidagi elektron ko'rgazmali vositalar degan atama shakllandi. Zero, ta'lim-tarbiya zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etib boradigan uzluksiz jarayondir. Buning uchun bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida fan o'qituvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Mamlakatimizdagi qariyb barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikasi, multimedia vositalari va boshqa jihozlar bilan to'liq holda ta'minlangan, har bir o'qituvchining "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali orqali har bir dars uchun kerakli ma'lumotlarni qidirishi, ularni qayta ishlashi va ta'lim jarayoniga tatbiq etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi paytda barcha o'qituvchi-murabbiylarimiz oldida turgan eng muhim masala ulardan unumli, maqsadli va natijali foydalanishdan iboratdir.

"Barchaga ma'lumki, ko'rgazmalilik ta'limning eng qadimiy va sinovlardan o'tgan samarali tamoyillaridan biri, tabiiy, bugun ham bu tamoyil o'z qimmatini yo'qotgan emas. Ammo ilgari o'qituvchi turli hajm va miqdorlarda, ibtidoiy shakl-shamoyillarda, turli materiallar va rang-bo'yoqlardan foydalanib o'zi yoki kimningdir ko'magida ming bir mashaqqat bilan tayyorlashi lozim bo'lgan ko'rgazmali qurollar zahmatini bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, kompyuterlar, multimedia beminnat o'z bo'yniga olgan"².

¹ Ibraymov A.Y. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. — Toshkent: "Lesson press", 2020. — 112 bet.

² Mahmudov N. Zamonaviy ona tili. // Til va adabiyot ta'limi. — Toshkent, 2013. 5 son. — B. 7.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2009-yil 5-dekabrda tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasida: "... o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor. ... ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug'dirishining ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim"³, – deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta.

Bugungi kunda axborot almashinuvi uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlari faoliyatiga, ya'ni umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limga ijobiy ta'sir etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy qilinishi, o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish, fanlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

"Kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirilgan o'quv jarayoni:

- butun o'quv jarayonida kompyuter texnikasi vositalarini qo'llashni;

- o'quv jarayonini har tomonlama qamrab olishni;

- texnikaviy, dasturiy, tashkiliy va o'quv-metodik ta'minotni bir turli hamda bir xilligini;

- har xil sharoitlarga qo'llashni moslashtirishni;

- yuqori didaktik va iqtisodiy samaradorlikni;

- yangi usullar asosida ta'limni, fan va ishlab chiqarishning o'zaro munosabatlarida integratsiyalashni hamda mutaxassislar tayyorgarligining oldindan ilgarilab ketishini ta'minlashni talab qiladi"⁴.

Haqiqatan, ushbu talablar kompyuter texnologiyalari bilan tashkil etilayotgan ta'lim jarayonining asosini tashkil qilishga katta yordam beradi.

Elektron o'quv-metodik majmualar, ya'ni elektron ko'rgazmali vositalar davlat ta'lim standartlariga mos keladi, sinf va auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari va mustaqil ta'limning o'quv-metodik ta'minotini o'zida mujassamlashtiradi.

"Elektron o'quv-metodik majmua zamonaviy axborot texnologiyalari

Bugungi kunda axborot almashinuvi uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlari faoliyatiga, ya'ni umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limga ijobiy ta'sir etmoqda.

³ Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 90–91

⁴ Fayazova M.R. Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2013. 1-son. – B. 58–59.

Ta'limning elektron vositalari zamonaviy axborot texnologiyalari orqali joriy etiladi. An'anaviy darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va boshqa nashr materiallarining elektron formatdagi nusxalari elektron o'quv-metodik majmualar yaratishda manba sifatida ishlatiladi.

muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik, interaktiv majmuasidan tashkil topadi. Elektron o'quv-metodik majmualar an'anaviy majmualardan farqli o'laroq o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalarining birligi sifatida namoyon bo'ladi"⁵.

“Elektron axborot-ta'lim resursi o'quvchilarga o'rganish va o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta'lim-tarbiya olish darajasidagi o'quvchilarga mo'ljallangan, ma'lum bir fanni o'rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir”⁶.

Elektron ko'rgazmali majmualarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- elektron o'quv darsliklari, qo'llanmalarining elektron versiyalari;
- elektron multimedia darsliklari;
- elektron ensiklopediyalar;
- elektron lug'atlar;
- elektron virtual kutubxonalar;
- elektron multimediali o'rgatuvchi tizimlar;
- turli ta'lim portallari;
- elektron taqdimot materiallari;
- audio o'quv-axborot materiallari;
- video o'quv-axborot materiallari;
- televideniye ko'rsatuvlaridan nusxa olingan parchalar;
- elektron interaktiv doskalar (EID);
- virtual nazorat topshiriqlari;
- elektron universal test dasturlari;
- masofadan turib ta'lim olish saytlari;
- elektron lingofon kurslari;
- internet tarmog'i;
- ma'lumotlar va bilimlar bazasi.

Ta'limning elektron vositalari zamonaviy axborot texnologiyalari orqali joriy etiladi. An'anaviy darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va boshqa nashr materiallarining elektron formatdagi nusxalari elektron o'quv-metodik majmualar yaratishda manba sifatida ishlatiladi.

Elektron ko'rgazmalilikda aynan bir o'quv materiali bir qancha vositalar, masalan, slydlar, elektron nashr, audio, video, CD-disklar ko'rinishida ta'lim oluvchilarga taqdim etilishi mumkin. Bu turdagi o'qitishning har bir vositasi o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega bo'ladi. O'qituvchi bunday imkoniyatlarni yaxshi bilishi va o'quv

⁵ Mamatov D. N., Rajabova S. Y. Ta'limda elektron o'quv-metodik majmualardan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2012. 7–8 son. – B. 30.

⁶ Boltayev B. Elektron axborot-ta'lim resurslari dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi // Ma'rifat. – Toshkent, 2013, 25-dekabr. № 103 (8648) – B. 3.

materiallarini ushbu vositalar bo'yicha taqsimlay olishi kerak bo'ladi.

Axborot texnologiyalari o'qituvchiga ma'ruza matnlari va darsliklarni kompyuter xotirasiga kiritish, turli tajribalar o'tkazish, animatsiya, slaydlar, turli xil ko'rgazmali materiallar yaratishga imkon beradi. Ushbu texnika vositalaridan darsda to'g'ri foydalanilsa, ular ta'lim oluvchilarning so'z boyligini oshiradi, talaffuzning ravon bo'lishiga, eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida yozuvchi va shoirlar hayoti, ijodini o'rgatishda, ularning asarlaridan zarur ma'lumotlarni o'quvchilarga havola etishda ham kompyuter texnologiyalari bizga beminnat yordamchidir. Masalan, "O'rta Osiyoning qomusiy olimlari" mavzusi bo'yicha tayyorlangan maxsus dasturda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom al-Buxoriylarning hayoti va ijod yo'llari haqidagi ma'lumotlar, ularning asarlari maxsus dastur asosida mumtoz musiqalar ostida videoroliklar tarzida yaratilgan. Bundan tashqari, internet tarmoqlarida deyarli barcha yozuvchi va shoirlarimizning hayoti va ijodi bo'yicha ma'lumotlar, ularning asarlari asosida suratga olingan videofilm, telefilm, "Umr daftari" turkumida tayyorlangan elektron materiallar ham mavjudki, bular adabiyot darslarini har tomonlama qiziqarli tashkil etishda o'qituvchiga katta yordam beradi. Ona tili darslarida ham mazmuni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi g'oyalar bilan sug'orilgan kichik matnlarni kompyuter xotirasiga kiritish va tahlil qilish asnosida ta'lim oluvchilarga ham ma'naviy ozuqa beriladi, ham nazariy bilimlar shakllantirilib boriladi.

"O'qitishdagi axborot texnologiyalari – bu o'qitish faoliyatida qo'llanadigan elektron vositalar va ularni ishlatish usullari majmuyidir. Elektron vositalar tarkibiga apparatli, dasturli va axborotli komponentlar kiradi"⁷.

Ma'lumki, internet tarmog'i ta'lim sohasida katta imkoniyatlarga ega. Internet orqali ta'lim jarayonidagi deyarli barcha savollarga javob topish mumkin, ammo mashhur olim Kreyg Barret: "Mo'jizani kompyuterlar emas, o'qituvchilar yaratadi", – deganida aynan ta'lim tizimida o'qituvchi-murabbiylarimiz axborot texnologiyalaridan maqsadli va unumli foydalanishni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Mavzuni AKT imkoniyatlaridan foydalanib tushuntirish uchun elektron darslik, qo'llanma, o'quv video materiallari va elektron ko'rgazmali vositalar mavjud bo'lishi lozim. Darsga tayyorlanishda taqdimot slaydlari yaratish uchun "Power Point", matn bilan ishlash uchun "Microsoft Office Word", turli jadvallar tuzish uchun "MS Excel" dasturlaridan

Axborot texnologiyalari o'qituvchiga ma'ruza matnlari va darsliklarni kompyuter xotirasiga kiritish, turli tajribalar o'tkazish, animatsiya, slaydlar, turli xil ko'rgazmali materiallar yaratishga imkon beradi. Ushbu texnika vositalaridan darsda to'g'ri foydalanilsa, ular ta'lim oluvchilarning so'z boyligini oshiradi, talaffuzning ravon bo'lishiga, eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

⁷ G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – B. 43.

Taqdimotlarni yaratish uch bosqichdan: rejalashtirish, taqdimotni ishlab chiqish va uni sinab ko'rishdan iborat. Ularning barchasi tashkil qilinadigan dars turidan, ya'ni darsning mustahkamlovchi yoki yangi bilim beruvchi ekanligidan kelib chiqadi.

foydalanish AKTni o'z ish faoliyatida qo'llash malakasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni ijodkorlikka undamoqda. Har bir fan o'qituvchisi darsda kompyuter qurilmalaridan didaktik vosita sifatida foydalana olishi bugungi zamonaviy ta'limning o'qituvchi oldiga qo'yadigan bosh talablaridan biridir.

Ta'lim tizimida turli fanlar qatori ona tili va adabiyot darslarida ham taqdimot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Axborot texnologiyasi vositasida dars o'tishning ushbu turi eng oddiy va qulay usul, ya'ni dars mavzusidagi materialni elektron ko'rgazma sifatida taqdim etishni nazarda tutadi. Bu usulda dars o'tish uchun o'qituvchiga kompyuter, proyektor, AKTning "Power Point" dasturi asosida yaratilgan slaydlar kerak bo'ladi. Mazkur dastur universal imkoniyatlari katta bo'lgan ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik kabilardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkoniyatini beradi.

"Slayd – ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari sanaladi. Ular muayyan bir mavzuni yorituvchi matn bo'lib, bu jarayonga yordam beruvchi chizmalar, grafiklar, fotosuratlar, animatsion effektlar, video tasvirlarni o'z ichiga oladi"⁸.

Taqdimotlarni yaratish uch bosqichdan: rejalashtirish, taqdimotni ishlab chiqish va uni sinab ko'rishdan iborat. Ularning barchasi tashkil qilinadigan dars turidan, ya'ni darsning mustahkamlovchi yoki yangi bilim beruvchi ekanligidan kelib chiqadi.

Taqdimotlarni tayyorlashda quyidagi ish turlariga ahamiyat berish talab qilinadi:

- slaydni tayyorlashdan ko'zlangan maqsadni aniq belgilash;
- foydalanuvchilarning bilish darajasiga qarab taqdimotning asosiy g'oyasini aniqlash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni tanlash va to'plash;
- taqdimot rejasini tuzish;
- slaydlar mavzuning mazmun-mohiyatiga mos bo'lishini e'tiborga olish;
- slaydda mavzuning nomi, rejasini ko'rsatish;
- o'quvchilar yoshiga mos dizayn tanlash;
- ta'lim oluvchilarning yoshi va psixologiyasini hisobga olgan holda animatsiyalar tanlash;
- sahifalararo izchillik va uzviylikni ta'minlash;
- qoida, ta'rif va izohlarni lo'nda, aniq, mazmunli bo'lishini ta'minlash;
- ma'lumotlarni yozishda imloviy savodxonlikka amal qilish;

⁸ Tosheva O. Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2012. 12-son. – B. 28.

– xulosa tayyorlash.

Darslarda namoyish qilinadigan slaydlardagi matnlar qisqa, aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Bir slayddagi matn 8–10 qatordan oshmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar matnlarning hajmi ko'payib ketsa, harflarning ham hajmi kichrayadi, natijada u barcha ta'lim oluvchilarga birdek aniq ko'rinmaydi. Dars jarayonida o'qituvchi qisqartirilgan matnlarni og'zaki tarzda to'ldirib, mavzuni tushuntirib boradi. Slaydlarni namoyish etishda multimedia elementlaridan samarali foydalanish mumkin. "Power Point" dasturida slaydlarning ketma-ketlikda harakatlanishi, ular almashinishi orasida ma'lum vaqtning belgilanishi, jihozlash uchun 50 taga yaqin shablonlar, 10 tacha turli rangdagi nusxalarning kiritilgani, oddiy, o'rtacha va murakkab tuzilishdagi animatsiya effektlarini qo'llash kabi qator imkoniyatlar mavjud. Slaydlar ketma-ketligidan iborat taqdimot kompyuter ekranida yoki proyektor yordamida katta ekranda namoyish etiladi.

Hozirgi vaqtda foydalanilayotgan ilg'or axborot texnologiyalarning asosiylaridan biri elektron interaktiv doskalar (EID) hisoblanadi. Ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lgan ushbu doskalar oddiy markerli doskalar ko'rinishiga ega bo'lib, kompyuter va projektordan iborat majmua tarkibida ishlaydigan elektron uskunadir. Elektron doska dars jarayonida interfaol muhitni shakllantirib, darslarni yanada qiziqarli va ko'rgazmali tarzda o'tish imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron interaktiv doskadan unumli foydalanish uchun o'qituvchi, avvalo, kompyuterdan foydalanishni yaxshi bilishi lozim. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida kompyuter savodxonligi bo'yicha kurslar o'tkazilmoqda. Elektron doska yordamida bajarilayotgan barcha amallar tegishli fayllarda kompyuter xotirasiga yozib qo'yilishi, printerda chop etilishi va o'tilayotgan darsga tayyor elektron material sifatida ta'lim oluvchilarga tarqatib berilishi mumkin. Interaktiv doska maxsus elektron qalam (stilus, marker) yordamida, shuningdek, qo'l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin. Ular sichqoncha vazifasini o'taydi. Elektron doska yordamida faqatgina dars o'tish emas, balki kinofilmlar, multfilmlar tomosha qilish, ya'ni video materiallar bilan ishlash mumkin. Elektron doska barcha fanlarga oid darslarning rang-barang va qiziqarli tashkil etilishini ta'minlaydi, o'qituvchining darsga, mavzuga yondashuvini tubdan o'zgartiradi, darsdagi vazifalarni takomillashtiradi. Har bir darsning muvaffaqiyati birinchi navbatda o'qituvchining kasb mahorati va malakasiga bog'liq. Interfaol doskaning u yoki bu imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olishi esa pedagogga qo'shimcha qulaylik yaratadi. Ushbu zamonaviy o'quv vositasi yordamida olib borilayotgan mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligi 5–6 foizgacha o'sgani tajriba-

Hozirgi vaqtda foydalanilayotgan ilg'or axborot texnologiyalarning asosiylaridan biri elektron interaktiv doskalar (EID) hisoblanadi. Ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lgan ushbu doskalar oddiy markerli doskalar ko'rinishiga ega bo'lib, kompyuter va projektordan iborat majmua tarkibida ishlaydigan elektron uskunadir.

***Yurtimizdagi
barcha ta'lim-
tarbiya
muassasalari,
yoshlar
tashkilotlari,
kutubxonalar,
muzeylar
hamda boshqa
ilmiy-ta'limiy,
madaniy-ma'rifiy
tashkilotlar – jami
12 000 ga yaqin
muassasalarni
internet tarmog'iga
ulash, asosan,
"ZiyoNet" ta'lim
portali orqali
amalga oshiriladi.***

tadqiqotlar natijasida mutaxassislar tomonidan tasdiqlanmoqda. Elektron doskada o'tilgan yangi mavzuni mustahkamlash va o'quvchilar ishini umumiy baholash ham amalga oshiriladi, beriladigan uy vazifasi ekranda namoyish etiladi. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ham interfaol elektron doskaning afzalliklari yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, ona tili ta'limida "Guruhdagi ortiqcha so'zni aniqlash", "Xatolarni tuzatish", "Berilgan so'zlarni guruhlarga ajratish", "Nuqtalar o'rniga zarur harf, bo'g'in, qo'shimcha so'z, so'z birikmasini qo'yish" mashqlarini samarali tashkil qilishda, adabiy ta'limida esa mavzularga oid o'quv video materiallarini namoyish qilish, audio materiallarini eshitish, turli xil muammoli vaziyatlar yaratishda katta yordam beradi. Ta'lim oluvchilar elektron doskadan foydalanish jarayonida diqqatliroq, e'tiborliroq va qiziquvchan bo'lishadi, ya'ni u e'tiborni jamlash va ushlab turishning bebaho vositasidir. Elektron doskalar yordamida taqdimot darslari, seminar mashg'ulotlari va nazorat ishlari samarali tashkil qilinadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida "Elektron ta'lim" loyihasi jadal su'ratlarda amalga oshirilmoqda. Bunda barcha ta'lim muassasalarini yagona ta'lim portaliga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 2005-yil 28-sentabrdagi "Jamoat ta'limi axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bu ishlarga dasturulamal bo'lmoqda. Bu qaror mamlakat maktablari, litsey, kollej o'quvchilarining, oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborotga bo'lgan talab-ehtiyojlarini har tomonlama qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Yurtimizdagi barcha ta'lim-tarbiya muassasalari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar hamda boshqa ilmiy-ta'limiy, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar – jami 12 000 ga yaqin muassasalarni internet tarmog'iga ulash, asosan, "ZiyoNet" ta'lim portali orqali amalga oshiriladi. Axborot resurslarini "ZiyoNet" tarmog'iga joylashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan barcha xizmatlar yuqorida ko'rsatilgan muassasalardagi foydalanuvchilar uchun bepul.

Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 28-dekabrdagi "ZiyoNet" jamoat ta'limi axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq "ZiyoNet" resurs markazi hamda uning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklari huzuridagi bo'limlari tashkil etildi. Mazkur bo'limlar tomonidan respublikamizning barcha joylarida pedagoglarimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan turli ilmiy-ommabop va boshqa turdagi ta'limga oid axborotlar tezkorlik bilan internetdagi rasmiy manzili – www.ZiyoNet.uz portaliga joylashtirib borilmoqda. "ZiyoNet.uz" portalidan o'qituvchilar va yoshlar ta'limga oid o'zlari istagan axborotlarni topa olishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Tarmoq ishiga malakali mutaxassislar, pedagoglar, jurnalistlar jalb etilgan. Tarmoqda ta'lim tizimining barcha yo'nalishlari qamrab olingan. Unga murojaat qilgan pedagog ta'limning hamma bosqichlari, xususan, fanlar kesimida o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, portalda ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun ta'lim tizimidagi yangiliklar, maqolalar, taqvim-mavzu rejalari, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, tavsiyalar, mashg'ulot va dars ishlanmalari, tadbir ssenariylari, ilmiy-ommabop hamda badiiy adabiyotlar mavjud. Shuningdek, ular jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz haqida ma'lumotlar, ularning ijod namunalari, fotosuratlar, qiziqarli o'quv, ilmiy, ko'ngilochar videolavhalar, topishmoq va boshqotirmalar, topiklar kabi ko'plab ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin.

Metodist olim T.Niyazmetovanning "Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish" degan maqolasida 7-sinfda Zulfiya hayoti va ijodiga doir videotasmalar, "Umr daftari" deb nomlangan ko'rsatuvdan yozib olingan lavhalarni o'quvchilar e'tiboriga havola etish xususida maslahatlar beradi.

Adabiyotshunos va metodist olim B.To'xliyevning 2012-yilda yaratilgan "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" nomli adabiy-ijodiy albomi o'qituvchilar uchun metodik ashyo vazifasini o'taydi. Bu kitobdan foydalangan o'qituvchi nafaqat Navoiy ijodi bilan, balki Navoiyshunos olimlar, ularning Navoiy haqida yaratgan asarlari haqida ham ma'lumotga ham ega bo'ladilar. Darsga tayyorgarlik jarayonlarida bu manbalardan foydalanish imkonini beradi.

Professor B.To'xliyev "Navoiy g'azallari" (nasriy bayon, sharh va izohlar) to'plamini nashrga tayyorlash va chop etishda ham tashabbus ko'rsatdi. Buning birinchi sababi olimning o'zi ta'kidlaganiday "Mutafakkir shoir g'azallarining nashri, tadqiqi va tahliliga oid ko'plab ilmiy va ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar yaratilganiga qaramay, ularning mazmun va mohiyatini to'la anglash, his qilish oson ish emas... ularning ichki mohiyatini to'la tushunishning murakkabligi, ulardagi sir-u sinoatlar ko'p hollarda ochilmasdan qolayotgani bilan izohlanadi". Ayni damda kitobda yirik navoiyshunos olim, ustoz Najmiddin Komilovning ayrim g'azallar tahlili va nasriy bayoniga oid kuzatishlarini keng kitobxonlar ommasiga taqdim etish istagi; ta'lim bosqichlari uchun chop etilgan "Adabiyot"dan majmualarga kirgan, filologiya fakultetlari, talabalari, adabiyot o'qituvchilari uchun ahamiyatli namunalarni matnga tayanib tahlil qilish; o'quvchiga tushuntirish, sharhlashda; tushunilishi qiyin so'zlar lug'atidan foydalanib, g'azallarning mazmun-mohiyatini izohlashda metodik yordam berish maqsadi ko'zda tutilgan.

***Adabiyotshunos
va metodist olim
B.To'xliyevning
2012-yilda
yaratilgan
"Alisher Navoiy
hayoti va ijodi"
nomli adabiy-
ijodiy albomi
o'qituvchilar
uchun metodik
ashyo vazifasini
o'taydi. Bu
kitobdan
foydalangan
o'qituvchi nafaqat
Navoiy ijodi bilan,
balki Navoiyshunos
olimlar, ularning
Navoiy haqida
yaratgan asarlari
haqida ham
ma'lumotga ham
ega bo'ladilar.***

**Internet saytlarida
Alisher Navoiy
asarlari, lugʻatlar,
ilmiy maqolalar,
taqdimotlar, tadbir
ssenariylari, dars
ishlanmalari
mavjud boʻlib
oʻquvchi-
talabalarga ular
orqali buyuk
shoir hayoti va
ijodini chuqurroq
oʻrganish, koʻp
maʼlumotlarni
oʻqish va anglash
imkonini beradi.**

Dars jarayonida oʻqituvchi Alisher Navoiy ijodi va boshqa ijodkorlar hayoti va ijodi yuzasidan ham foydalaniladigan axborot manbalarini, oʻzbek adabiyoti aks etgan milliy va xorijiy saytlarni oʻzi ham bilishi, ularni oʻquvchi-talabalarga yetkazib borishi maqsadga muvofiq.

<http://www.tyurk.ru> – mazkur saytga obrazli qilib “Semurg” nomi berilgan. Sahifaga Y.E.Bertelsning “Navoiy va Attor” maqolasidan Semurg haqidagi fikr epigraf qilib tanlangan (Этот сар – «абсолютный сар». Ему присущи совершенство и красота. Описат словами его нельзя. К нему ведет дальняя дорога через бездонное море. Имя его Симург. Он обронул перо над Китаем, и вся живопис Китая - лиш изображения различных обликов этого пера). Internet sahifa lugʻat, kitobxona, poeziya va boshqa rubrikalardan iborat. Bu sayt orqali nafaqat rus, balki rus tilini biladigan har qanday kitobxon XII-XX asr turkiy poeziyasi, uning spesifik xususiyatlari bilan tanishishi mumkin. Sahifaga Navoiy, Lutfiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa mumtoz shoirlarning gʻazal va ruboiylari, asarlaridan namunalar S.N.Ivanov tarjimasida, oʻziga xos dizaynda joylashtirilgan.

<http://www.alishernavoiy.ru/index.php> – Navoiy hayoti va ijodini oʻrganishga bagʻishlangan maxsus sayt. Mazkur internet sahifaga shoirning rus tiliga oʻgirilgan deyarli barcha lirik va epik asarlari kiritilgan. Sayt orqali kitobxon nafaqat oʻqib-oʻrganishi, balki Navoiy asarlarini audio va video lavhalarda tomosho qilib, eshitishi, yozdirib olishi ham mumkin.

<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-ruboiylar.html> – ushbu havola orqali Xurshid Davron kutubxonasi saytidan Navoiy lirikasidan maʼlumot olsa, <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/alisher-navoiy-hikmatlari> – ushbu havola orqali ziyouz.com kutubxonasi saytidan Navoiy hikmatlaridan bahramand boʻlishadi.

Internet saytlarida Alisher Navoiy asarlari, lugʻatlar, ilmiy maqolalar, taqdimotlar, tadbir ssenariylari, dars ishlanmalari mavjud boʻlib oʻquvchi-talabalarga ular orqali buyuk shoir hayoti va ijodini chuqurroq oʻrganish, koʻp maʼlumotlarni oʻqish va anglash imkonini beradi.

Navoiy asarlarini oʻqib, uning mazmunini oʻquvchi yoki talaba tushuna olishi uchun kompyuterda matnning oʻng tarafiga notanish soʻzlar lugʻati berish mumkin. Bunda oʻquvchi har bir notanish soʻzni tez oʻzlashtirib olishiga imkon tugʻiladi.

Bugungi kunda asar yoki undan olingan parcha yuzasidan, shuningdek, yozuvchi yoki shoirning hayoti hamda ijodi, u yashab ijod qilgan adabiy muhit va davr boʻyicha xilma-xil testlar yaratilgan. Ularni adabiy taʼlim imkoniyatlariga moslab qaytadan koʻrib chiqish zarurati paydo boʻlmoqda. Navoiy hayoti va ijodi yuzasidan olingan bilimlarni sinovdan oʻtkazish maqsadida testlarni kompyuterlar xotirasiga kiritish

yangi axborot texnologiyalarini qo'llash uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etishda bunday testlarning o'z o'ri bor.

Dars jarayonida Navoiy g'azallarining, dostonlarining video, audio resurslaridan foydalanish ham darsning jonli, qiziqarli hamda mazmunan boy bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantiradi, ifodali o'qish salohiyatini oshiradi, estetik (xususan, badiiy) didini o'stiradi. Qolaversa, badiiy asarning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunib olishga yordam beradi. Shuningdek, kompyuter ta'lim oluvchilar nutqini o'stirish, rivojlantirish va savodxonligini oshirishdan tashqari ularning bilimlarini xolisona baholashda, o'qituvchining darsga tayyorgarligida va dars jarayonida vaqtni hamda ko'rgazmali qurollar uchun sarflanadigan mablag'ni tejash imkonini beradi. O'qituvchi dars davomida ta'lim oluvchilarning ish faoliyatini ham kompyuter orqali boshqarib turadi. Masalan, Navoiy g'azalini ifodali o'qishga o'rgatish jarayonida kompyuter ekranida g'azal matni paydo bo'ladi. Avvalo, ta'lim oluvchilar g'azal matnining o'qituvchi yoki suxandon tomonidan ifodali o'qilishini elektron vosita orqali tinglaydilar. So'ngra o'qituvchi o'zi xohlagan o'quvchisiga g'azalni o'qitib ko'radi va uni eshitadi. Bu jarayonda o'qituvchi uning nutqini diktofonga yozib olib, o'ziga eshittirishi ham mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishiga yordam beradi. Asardan parchalar, dramalarni rollarga bo'lib o'qishda ovoz va ohang ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchilar o'zlarining ovozlarni eshitgach ularni o'qish jarayonida ovoz va ohangning o'zgarishi ifodalanayotgan fikrni o'zgartirib yuborishi mumkin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

O'quvchilarga badiiy asarning til xususiyatlarini anglatishga doir vazifalar tizimi xali yaratilganicha yo'q. Bu ish o'zbek adabiyoti darslarida o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarni hisobga olgan, o'zbek adabiyotiga xos yangi tushunchalarni bayon etgan holda amalga oshiriladi.

O'zbek adabiyoti mashg'ulotlari uchun ma'lumotlar omborini boyitib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi yuqoridagi mushohadalarimizdan ham yaqqol ko'rinib turibdi. Bu boradagi harakatlar boshlanganini, hali mo'ljalda qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'lami keng ekanini qayd etish joiz. Zero, "Axborot texnologiyalari" darsligida yozilganidek, "Foydalanuvchilarning mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot obyektlarini yaratish, kerakli axborot obyektlarini izlash, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko'rinishda tasvirlash, axborot obyektlarini (matn, suhbat, rasm, o'yin va boshqa ko'rinishda) uzatish, modellashtirish, loyihalash, obyektlarni rejalashtirish va boshqalar kiradi".

O'quvchilarga badiiy asarning til xususiyatlarini anglatishga doir vazifalar tizimi xali yaratilganicha yo'q. Bu ish o'zbek adabiyoti darslarida o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarni hisobga olgan, o'zbek adabiyotiga xos yangi tushunchalarni bayon etgan holda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar (bilimlar) omboridan foydalanish tartibi ham bir xil emas: maxsus kompyuter darsi ajratish, kompyuterdagi bilimlar omboridan darsning ma'lum bir qismida alohida bosqich sifatida foydalanish, o'quvchi (talaba)larning guruhli va yalpi mustaqil ishlarini tashkil etish, darsdan tashqari o'qishni uyushtirish.

O'zbek adabiyoti ta'limi jarayonida o'quvchi-talabalarning har tomonlama bilimini mustahkamlash va nutq faoliyatini o'stirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish borasida axborot texnologiyalarining amaliy ahamiyati katta.

Xullosa. O'zbek adabiyoti namunalarini o'rganish jarayoniga va mashg'ulotlardan tashqari tadbirlarga axborot texnologiyalari kirib kelishi, yoshlarning bilim olish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, ularning mustaqil o'qib-o'rganishlari, izlanishlari uchun yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009. – 145 b.*
2. *Asqarov A.D., Masofaviy o'qitish ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta'lim 2015, 10. 59 – 65 b.*
3. *Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. dis. – Toshkent, TDPU, 2007. – 305 b.*
4. *Ibraymov A. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va o'quv kurslari mazmunini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2016. – №1/5 – B. 110–113.*
5. *Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta'lim muassasalarining rusiyabon guruhlarida): Ped. fan. nom. ... diss. – T., 2004. – 160 b.*
6. *Nishonova S. Adabiyot darslarida tasviriy san'at materiallaridan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati // «O'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish» to'plamida. Toshkent: O'zPFITI, 1983. – B. 69-76.*
7. *Qosimova M. Badiiy asar qahramonlari xarakterini portretlar tahlili vositasida yoritish // O'zbek maktablarida ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish: Ilmiy asarlar to'plamida. – T.: O'zPFITI, 1990. – B. 85-89.*
8. *Mahmudov N. Zamonaviy ona tili. // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2013. 5-son. – B. 7.*
9. *Fayazova M.R. Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2013. 1 son. – B. 58–59.*
10. *Mamatov D.N., Rajabova S.Y. Ta'limda elektron o'quv-metodik majmualardan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2012. 7–8-son. – B. 30.*
11. *Boltayev B. Elektron axborot-ta'lim resurslari dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi // Ma'rifat. – Toshkent, 2013-yil, 25-dekabr. № 103 (8648) – B. 3.*
12. *Tosheva O. Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2012. 12-son. – B. 28.*